



BURHONIDDIN ZARNUJIYNING "TA'LIM AL-MUTA'ALLIM" ASARIDA ILMNING MOHIYATI VA ILM OLIISHDA NIYYATNING O'RNI HAQIDAGI G'OYAVIY QARASHLAR

Qaxxarova Nazira Nuridillo qizi

*Qarshi davlar universiteti pedagogika nazariyasi
Pedagogik ta'limotlar tarixi mutaxassisligi doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Burhoniddin Zarnujiyning g'oyalari aks etgan "Ta'lim al-muta'allim" asarida ilmning foydasi hamda ilm olish jarayonining samaradorligida niyyatning o'rni qay darajada ekanligi va hozirgi zamon didaktik jarayonida ham nechog'lik ahamiyatli ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilm, niyyat, goya, samaradorlik, didaktik jarayon.

Ta'lim va tarbiya har bir jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sharq sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlar ko'p bo'lib, ularning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shunday ulug' allomalardan biri Burhonuddin al-Islom al-Zarnujiy bo'lib, uning "Ta'lim al-muta'allim tariq at-ta'allum" ("Talabalarni o'qitish, ta'lim olish yo'li") asari islom pedagogika tarixining eng muhim manbalaridan biridir. Bu asar nafaqat Sharq, balki musulmon olamining ta'lim tarixida mustahkam o'rin egallagan bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, ta'limning maqsad va vazifalari, ta'lim olishning odoblari hamda ilmning inson kamolotidagi o'rni keng yoritilgan.

"Ta'lim al-muta'allim" asarida ilgari surilgan g'oyalar, avvalo, ilm olishning ma'naviy asoslarini tashkil etadi. Asarda ilmning mohiyati, uning talabalarga foydasi, ilm talab qilishning yo'llari, ta'lim olishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar chuqur falsafiy-pedagogik tahlil qilingan[1;122-b]. Zarnujiyga ko'ra, ilmning eng ulug' maqsadi Alloh rizoligiga erishish va jamiyatga manfaat yetkazishdan iboratdir. U ta'limning ma'naviy, axloqiy, aqliy va ijtimoiy jihatlarini uyg'un holda ko'rib chiqadi. Bu jihati bilan u zamonaviy pedagogikada tilga olinadigan "tarbiya va ta'lim birligi" tamoyilining ilk nazariy asoschilaridan biri bo'lib hisoblanadi.[2;88-b]

Uning ilmiy merosi, xususan, pedagogik qarashlari madrasalarda ta'lim olishning eng maqbul metodlari, ustozning fazilatlari, kitob mutolaasi madaniyati, ta'limda iroda va sabrning o'rni kabi masalalarga bag'ishlangan. Shu tufayli "Ta'lim al-muta'allim" asari o'rta asr musulmon pedagogikasining yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi.



Bugungi kunda ham mazkur asarda ilgari surilgan ilmiy-ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zarnujiy ta'limning maqsadi, talabaning niyati, ustoz tanlash odobi, ilmda baraka masalalari haqidagi fikrlari bilan nafaqat diniy ta'lim, balki dunyoviy ta'lim tizimi uchun ham muhim metodologik asos yaratadi.[3;215-b] Talabalarga qilgan nasihatlarini insonni kamolotga yetkazuvchi tarbiyaviy dastur sifatida ishlatilgan.

Alloma mazkur asarning birinchi bobida ilm olishlik har bir inson uchun farz ekanligini ta'kidlaydi. Agar inson biror ilmni o'rganishni istasa unga oid bo'lgan barcha manbaalarni bering shundagina olingan ilm kamchilikardan holi bo'ladi deb, o'rganish kerak bo'lgan ilmlarni sanab o'tadilar va mazkur ilmlar ichida qalb holatining ilmlarini ham bilmoq juda nozik va muarakkab ilmdir deya fikr bildirgan holda hadisdan misol keltirib o'z fikrlarini to'ldiradilar. Yana aytiladiki Allohning qazoi qadaridan qutilib bo'lmaydi, ya'nikim senga nima nasiba sifatida yozilgan bolsa albatta bo'ladi faqat sen duo bilangina senga keladigan musibatni yengillashtirishing mumkin, Zero senga kelgan yengillik duoyu iltijolar mevasidir, kabi mazmunidagi fikrlarni quyidagi misra bilan qisqa va aniqlashtiradi.

Daryoning ostida bo'lsa joying,

Bahona birla yetkuzur Xudoying.[4;13-b]

Alloma asarda ilm olish ta'lim tarbiya jarayonining asosiy va majburiy sharti sifatida ifodalaydi. Ilm olish jarayonida yuzaki yondoshmasdan balki chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlaydi shundagina ilm mukammal va amaliy natija beradigan darajada yuksaladi. Bundan tashqari qalb ilmini ham ko'zdan qochirmagan holda eng nozik va murakkab ilm ekanligini ta'kidlab, insonning ichki olami, axloqiy holati, ruhiy barqarorligi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutishini aytib o'tadi. Zarnujiy o'z fikrlarini hadislar va hayotiy voqealarga tayangan holda, ilm va axloqning uzviy bog'liqligini ilmiy va diniy bilimlar bilan mustahkamlaydi.

Mazkur qarashlar zamonaviy pedagogika tomonidan tahlil qilinganda, allomaning aqliy, axloq, jismoniy va ruhiy tarbiyani uyg'un holda olib borish g'oyasi hozirgi kopetensiyaviy yondashuv bilan hamohang ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi didaktik jarayonda ta'lim bilan bir qatorda ta'lim oluchining ruhiy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi hamda ta'lim muhitini boyituvchi metodologik asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi fasl ilm olishga niyyat deb nomlanadi. Zarnujiy Niyatning ta'limdagi o'rni va axloqiy ahamiyati quyidagicha bildiradi.

Muallif ta'limni faqat tashqi bilim olish jarayoni sifatida emas, balki ichki, ma'naviy niyat bilan uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.



Har qanday amal (shu jumladan, o'rganish ham) niyatga bog'liq. To'g'ri niyat bo'lmasa, tashqi amallar barqaror natija bermaydi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar o'z harakatlarini Alloh roziligini olish maqsadida yo'naltirishlari lozim. Bu — ta'lim jarayonining axloqiy tayanchi. O'quvchilar o'z niyatlarini poklashlari, ya'ni o'rganish jarayonida faqat dunyoviy manfaatlarni emas, balki ma'naviy maqsadlarni ham ko'zlashlari kerak.

O'qituvchi shuningdek, o'quvchilarni niyatni boshqarishga o'rgatishi, ularni o'z maqsadlarini anglash va hayotga tatbiq etishga yordam berishi lozim.

Zarnujiy ta'kidlaydi: bilim izlovchi shaxsning niyati doimo yaxshi bo'lishi kerak. **Yaxshi niyat** quyidagilarni o'z ichiga oladi: Allohning roziligini va oxirtdagi baxtni izlash, o'zining va boshqalarning jaholatini yo'q qilish, Allohning aql va jismoniy ne'matlariga shukr qilish. Aksincha, **yomon niyat** quyidagilarni o'z ichiga oladi: shon-shuhrat, dunyoviy lazzatlarni qidirish, hukmdorlar oldida obro' qozonish. Shunga qaramay, Alloma bilim olishning maqsadi hurmatga sazovor lavozimga erishish bo'lsa, shart shuki, bu maqsad **yaxshilikka da'vat qilish, yomonlikni man qilish, haqiqatni ilgari surish va dinni hurmat qilish** uchun bo'lishi kerak, shaxsiy istaklarni qondirish uchun emas. U aqlli odamlarning xudbinlik bilan o'zlarini pastga tushirmasliklari va uyat vodiylaridan qochishlari muhimligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari bilim oluvchi shaxsda kamtarlik, tavoze, odob-axloq va iffat kabi fazilatlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ustozi Burhoniddin Mag'inoniyning sherlari orqali ilmni shaxsiy yuksalish hamda axloqiy tarbiya vositasi sifatida namoyon etadi. Bu esa pedagogik nuqtaiy nazardan ta'lim oluvchilarda shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish bilan bog'liqdir.

XXI asr pedagogikasi ham o'quvchining ichki motivatsiya va niyyatini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Ta'lim jarayonining maqsadi ham bevosita niyyat va axloqiy qadryatlarga bog'liq. Kamtarlik, tavozu va odob-axloq bugungi **ixtisoslashgan shaxs tarbiyasi va psixopedagogika** konsepsiyasi bilan uyg'un keladi. Bu, talaba ilmiy bilim bilan birga, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ilm olishdagi mashaqqatni Zamonaviy pedagogika **resurslarni samarali boshqarish, vaqtni tashkil etish va talabaning sabrini shakllantirish** bilan bog'laydi. Shunday qilib, ikkinchi faslda Zarnujiy ilm olishda niyatning markaziy o'rni, shaxsiy fazilatlar va mashaqqatli mehnatning ahamiyatini chuqur pedagogik jihatdan izohlaydi. Bu qarashlar bugungi **integrativ pedagogik yondashuv** va **shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish** konsepsiyasi bilan uzviy aloqador.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Qaraviyin kutubxonasi qo'lyozmalar katalogi. – Fes, 1955. – B. 122.
2. Al-Kattani M. Tarix al-tarbiya al-Islamiyya. – Bayrut, 1980. – B. 88
3. Al-Nadim M. Fihrist. – Qohira, 1929. – B. 215.
4. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari Toshkent-2022, 13-b